

### **Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darslikda ishning ikki varianti keltirilgan: “Qorbobo”lar va “Ari”. Bu ishlar turli murakkablik darajasiga ega bo‘lib, o‘quvchilardan har xil ko‘nikmalarni talab etadi. O‘qituvchiga sinfdagi o‘quvchilar bilan “Qorbobo”lar asosiy topshirig‘ini bajarish tavsiya etiladi.

“Ari” topshirig‘i yuqori murakkablikka ega bo‘lib, u o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, shuningdek, berilgan vazifani bajarishning turli usullarini topa olish, zarur material va vositalarni izlab topish hamda tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Uni o‘quvchining xohishiga ko‘ra sinfdan tashqarida va kattalar yordamida bajarish tavsiya qilinadi.

*Darsning bu qismi tuzilishi bo‘yicha odatdagidek o‘tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o‘quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo‘riqnoma berilgan.*

### **Amaliy qism (20 daqiqa).**

O‘qituvchi ishni baholash mezonlarini e‘lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarurat tug‘ilganda, o‘qituvchi yordam ko‘rsatadi.

### **Yakunlash va mulohaza (10 daqiqa).**

*Darsning bu qismi ham tuzilishi bo‘yicha odatdagidek o‘tkaziladi.*

Dars yakunida o‘qituvchi o‘quvchilarning erishgan natijalarini baholaydi.

## **14-dars. O‘yinchoq yasaymiz**

### **Dars maqsadlari:**

- o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- konstruksiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- maqsadga erishish uchun harakatlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda bajarish qobiliyatini shakllantirish;
- ijodiy salohiyat va innovatsion fikrlashni o‘stirish;
- muhandislik-texnologik bilim va malakalarni hosil qilish;
- ijodiy fikrlash va loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- rivojlantiruvchi o‘yinlarga qiziqishni tarbiyalash.

### **Kerakli materiallar:**

**1-variant:** karton quti, shisha idishlarning plastik qopqoqlari, kichik yengil koptokcha, issiq yelim to‘pponchasi, mahsulot namunasi, darslik.

**2-variant:** plastik butilka, bolalar shirinliklari yoki o‘yinchoqlari o‘rami uchun plastik kapsula, rang-barang yopishqoq tasma, mustahkam ip, qog‘oz kesadigan pichoq, darslik, mahsulot namunasi..

### **Tashkiliy qism (5 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi savollar beradi:

1. O'ynashni yaxshi ko'rasizmi?
2. Qanday o'yinchoqlar bilan o'ynashni yoqtirasiz?
3. Sizningcha, o'yinchoqlar qanday foyda keltiradi?
4. O'yinchoqlar chaqqonlik, tez harakat qilish va aniq nishonga olish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkinligini bilasizmi?

O'qituvchi o'quvchilarga tashlandiq materiallardan shunday o'yinchoq yasashni taklif etadi.

O'qituvchi savollar beradi:

Plastik chiqindilar tabiatga qanday zarar yetkazadi?

Tashlandiq materiallardan o'yinchoq yasash ko'nikmasi atrof-muhitga qanday foyda keltirishi mumkin?

O'qituvchi ish uchun yangi asboblarni (termik yelim pistoleti va kanselariya pichog'i) kerakligini aytadi va xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiradi:

1) Termik yelim pistoletini nazoratsiz qoldirmang. Bu elektr asbob bo'lib, 220 darajagacha qiziydi.

2) Ish paytida termik pistolet uchi pastga qaratilgan holda tik turishi kerak (pistoletni yonboshlatib qo'yish mumkin emas).

3) Termik pistoletning metall qismlariga va erigan yelimga tegish mumkin emas.

4) Ishdan so'ng asbobni elektr tarmog'idan uzib, to'liq sovishini kutish lozim.

O'qituvchi savollar beradi:

1. Sizningcha, yoqilgan pistoletni nazoratsiz qoldirsak, nima bo'lishi mumkin?
2. Pistoletning qizigan metall qismiga yoki erigan yelimga tegilsa, nima sodir bo'ladi?

Kanselariya pichog'i bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari:

- 1) Tig'ning kichik qismini chiqaring.
- 2) Kesayotganda, bir qo'lingiz bilan pichoqni, ikkinchi qo'lingiz bilan esa ishlov berilayotgan materialini mahkam ushlang.
- 3) Pichoq ishlatilmayotgan paytda, tig' ichkariga kiritilgan bo'lishi kerak.

### **Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darslikda ishning ikki varianti keltirilgan. O'quvchilar ulardan xohlaganini tanlashlari mumkin. Yoki istaklariga ko'ra ikkala variantni ham bajarishlari mumkin.

*Darsning bu qismi standart tuzilmaga ko'ra o'tkaziladi. Darslikda yordamchi sifatida video yo'riqnoma berilgan bo'lib, o'quvchilar unga asosanib ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.*

**Amaliy qism (20 daqiqa).**

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini tushuntiradi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lsa, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

**Yakunlash va refleksiya (10 daqiqa).**

*Darsning bu qismi ham tuzilishi bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi.*

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan natijalarini baholaydi.

## **15-dars. Ramka**

**Dars maqsadlari:**

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- termoyelimli to'pponcha va qog'oz kesuvchi pichoq bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- o'quvchilarni yangi turdagi chiqindi material - tuxum uchun karton idish bilan tanishtirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlarning to'g'ri ketma-ketligini bajarish ko'nikmasini rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juft bo'lib ishlash qobiliyati, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrini ifodalay olish, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish mahorati).

**Kerakli materiallar:** karton, tuxum uchun karton idish, termoyelimli to'pponcha, qog'oz kesuvchi pichoq, qaychi, darslik, tayyor buyum namunasi.

**Tashkiliy qism (10 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi ushbu darsda o'quvchilar yangi turdagi material - tuxum uchun karton quti bilan tanishishlari va ishlashlari kerakligini ma'lum qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga tuxum uchun karton qutini ko'zdan kechirish, g'ijimlash hamda o'rash va buklashga urinib ko'rishni taklif etadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Qutining qanday xususiyatlarini payqadingiz? (*Juda mustahkam, pishiq, egilmaydi, g'ijimlanmaydi*)